

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KORRUPSIYANING SALBIY OQIBATLARI

Mirxamidova (Yunusova) Maftunaxon Xusanboy

Annotatsiya. Ushbu maqola korrupsiya illati, korrupsiyaning barcha sohalarni qamrab olganligi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari ham korrupsiyadan chetda qolmaganligi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida korrupsiyaning kelib chiqish sabablari uning oqibatlari va qanday bartaraf etish to'g'risidagi yechimlari haqida.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, maktabgacha ta'lim tashkiloti, transmilliy-jinoyat, huquqbuzarlik, tamagirlik, jinoyatchilik, manfaat, terrorizm, shaxsiy hayot, iqtisodiy faoliyat, saboq, hotirjamlik, huquq tartibot idoralari, komissiyalar, siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlar, poraxo'rlik, islom dini, qonun, e'tiqot, iymon, illat, „Korrupsiyani qabul qilish indeksi“, halollik, Jahon odil sudlov loyihasi, huquq ustuvorligi indeksi, korrupsiyadan holilik indikatori, Transparency International (xalqaro shaffoflik tashkilot) va to'g'rilik. Jamiyat ravnaqiga raxna soluvchi korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Korrupsiya so'ngi yillarda xalqaro miqyosida transmilliy jinoyat- sifatida jamiyat tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir.

Korrupsiya bu- jamiyatning turli yo'llar bilan iskanjaga oluvchi, daxshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazuvchi, inson huquqlari buzilishiga olib keluvchi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi, hayot sifatini yomonlashtiruvchi, odamlar xavfsizligiga tahdit soluvchi uyushgan jinoyatchilik terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib gullashi uchun sharoit yaratib beruvchi, ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtiruvchi, xalqning davlat boshqaruvi hokimiyati organlariga ishonchini yo'qatadigan, jamiyatda ma'naviyatni izdan chiqaradigan, insonni tubanlik botqog'iga botiradigan, jamiyatni tanazzulga olib boradigan eng yomon illatdir. Korrupsiya natijasida yuzaga keladigan yana boshqa noxush hodisalar ro'yxatini juda ko'plab sanab o'tish mumkin.

Korrupsiya (lot.Corrumpere-buzmoq) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishni anglatadi. Ko'p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko'plab davlatlarning jinoyat va ma'muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta'qib qilinadi.

Korrupsiyaning tarixiy o'zakkari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma'lum mavqeaga ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Korrupsiya bizning kunlarga yetib kelganligi

shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tag-tugi bilan yo'qotib bo'lmaydi. Hatto rivojlangan g'arb davlatlari ham korrupsiyadan xolos bo'lolmagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

Korrupsiya- davlatni yemiruvchi, insonni tubanlashtiruvchi illatdir. Korrupsiya barcha davlatlarning qolaversa, O'zbekistonni ham chetlab o'tmagan. O'zbekistonning barcha sohalarda ta'lim, san'at, sanoat, meditsina, sport va shu kabi sohalarda korrupsiyani uchratish mumkin. Bugungi kunda korrupsiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi o'g'rilik, noqonuniylik, poraxo'rlik boshqa sohalarda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan o'g'rilik, noqonuniylik va poraxo'rlikka qaraganda, qo'pol, yomon va eng jirkanchlisidir. Chunki bu yerda o'zini himoya qila olmaydigan kichik, jajji bolajonlarning, norasida go'daklarning haqqi bor. Bolaning og'zidan ovqatini tortib olish, unga ta'lim berish kerak bo'lgan mutaxassisni o'likjon qilib qo'yish, uning o'sha kun kerakli ozuqani iste'mol qilmasligiga kerakli bilimni o'zlashtirmasligiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari korrupsiyaning ayni ko'rinishlari hozirgi rivojlangan hemis dasturi tizimida ham vujudga kelmoqda. Insonlar ongi axborot texnologiya tizimi rivojlangani kabi korrupsiya ham rivojlanib bormoqda. Shunday, korrupsiya ildiz otib borayotgan bu sohamizda qachon o'sish rivojlanish bo'ladi?- degan savol tug'iladi. Qachonki, biz yosh avlod sohamizda qaysi holatlarda noqonuniy harakatlar kuzatilayotganini, ularning sabab va oqibatlarini o'rganib, yechimini topsakkina o'sish, rivojlanishga birinchi qadamimizni qo'ygan bo'lamiz.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ko'proq noqonuniylik harakatlari quyidagilarda kuzatiladi:

-o'likjonlar maktabgacha ta'lim tizimidagi eng katta muammolardan biri hisoblanadi. "O'likjonlar"- maktabgacha ta'lim tashkilotida ishlamaydigan xodimlar, ular turli lavozimlarga rasmiylashtirilgan. O'likjon bolalar ham bo'lishi mumkin. Ular aslida maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanmaydi noqonuniy ota ona kelishuvi bilan maktabgacha ta'lim tashkilotiga qamrab olingan, davlat xizmatlari ro'yxati tizimida tursalarda, MTT da boshqa nom bilan tarbiyalanadi bola soni esa taomnomaga qo'shilmaydi va ular qonuniy tarbiyalanayotgan bolalarning haqqidan ovqatlanadilar.

-oziq ovqat maxsulotlari talan taroj qilinishi. Maktabgacha ta'lim tizimi bug'alteriyasi markazlashtirilgan. Shartnoma va xaridlarni maktabgacha ta'lim vazirligining hududiy bo'limlari amalga oshiradi. Bog'chalar to'g'ridan- to'g'ri xarid qilmaydi lekin bog'chalarda tashkil qilingan maxsus komissiya oziq ovqat sifati va miqdoriga qarab uni qabul qilib olish kerak bu holatda mahsulot sifatsiz bo'lsa, uni qaytarib yuborish mumkin. Xarid qilinadigan oziq ovqatlarning narxlari mahalliy hokimiyatlari tomonidan har oy belgilab beriladi. Narxni baland ham past ham qo'yish

mumkin emas. Agar mablag' baland qilib belgilansa, ortiqcha mablag' o'zlashtirishga asos bo'lishi mumkin. Bozor narxiga nisbatan past belgilansa, sifatsiz mahsulot xaridiga olib keladi. Shuning uchun narx belgilashda me'yorni to'g'ri yo'lga qo'yish talab etiladi.

-nodavlat bog'cha dasturidagi noqonuniy harakatlar: Bunda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi va bolalarning onlayn davomat qilishdagi qonunga xilof bo'lgan ishlarni amalga oshirishi hisoblanadi, ya'ni tarbiyachi va bolalarni noto'g'ri davomatdan o'tkazish. Maktabgacha talim tashkilotiga bola kelmagan bo'lsada, uni rasm orqali davomatdan o'tkazish tarbiyachini esa oy yakunida bolani tabelga qo'shib belgilab topshirishi holatlari ommalashgan. Hozirda buning chora tadbirlari ko'rilmogda.

Yuqoridagi muammolarni kelib chiqish asosiy sabablari va oqibatlari:

-maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ish haqqi (oylik maosh) ning kamligi; ya'ni pedagog kadrlarni qilgan mehnatiga munosib ish haqqi belgilanmagan. Ta'lim tizimida eng ma'sulyatli kasb bo'lishiga qaramasdan biz tarbiyachilar ish haqqimiz juda ham oz miqdorda to'lab beriladi. 1-stavka ishlaydigan oliy ma'lumotli tarbiyachilarning ish haqqi **2.300.000** ming so'm lekin maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 1-stavka ishlaydigan xodimlar kam. Umumiy o'rta maxsus tarbiyachi ish haqqi esa **1.600.000**ming so'm. Bu esa o'rtacha ahvolda yashaydigan oilalar uchun 1-oyga yashash uchun kamlik qiladi. Shu sababli ham qo'shimcha mablag' topish maqsadida ham korrupsiyaga qo'l uriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi rahbar, administratsiya, metodist, tarbiyachi va yordamchilarni bunday huquqbuzarlikga yo'l qo'yishlari ham shundandir.

- maktabgacha ta'lim tashkilotidagi xodimlarga qo'yilgan topshiriq va vazifalarni ko'pligi ya'ni ish hujjatlarining ko'pligi va davomat tizimini kirib kelishi, maktabgacha ta'lim tashkilotida ishlaydigan xodimlarni layoqatsizligiga olib kelmoqda va tarbiyachining toliqishi natijasida bolalar kerakli bilimlarni kun davomida qabul qila olmayaptilar, bunga asosiy sabab tarbiyachining bolaga bilim berishga vaqt kam ajratayotganligidir. Bu esa vaqtni yetishmasligidan kelib chiqadi. Tarbiyachi kun davomida tabel, filtr, patronaj daftarlarini yuritishi bolaga mas'ul shaxs sifatida ularni nazorat qilishi, bolalarning rivojlantirish xaritasini yuritishi shaxsiy ish rejasini yuritishi va boshqa hujjatlarni yuritib borishi qolaversa, internet axborot tizimi xali rivojlanmagan xududlarda bolalarni onlayn davomatdan o'tkazish (onlayn davomat uchun internet tarmog'i rivojlanmagan va ishlash darajasi juda sust bo'lgan joylarda kamida 2soat vaqt ketadi) tarbiyachi vaqtini shunday narsalarga sarflashiga sabab bo'lmoqda.

- maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchi (guruh kesimida) bolalar sonining ko'pligi. Xorij tajribasini oladigan bo'lsak, Yaponiyada bir guruhda tarbiyalanadigan bolalar soni ko'pi bilan 12-20 tagacha ularga 4-nafar tarbiyachi

qaraydi, bizda esa aksincha, bir guruhda tarbiyalanadigan bolalar soni 25-30 tagacha ularga 2-nafar tarbiyachi ta'lim beradi. Bundan ko'rish mumkinki: tarbiyachini zo'riqishiga va o'z kasbiga sadoqat bilan yondashmasligiga olib keladi. Buning natijasida tarbiyachi o'zini zo'riqtirishni xoxlamaydi va bolalarga yetarlicha bilim, malaka, ko'nikma bera olmaydi, chunki unda bilim berishiga motivatsiya ham yetarli ish haqqi ham yo'q.

Bunday hollarda korrupsiya huquq buzarlilik jinoyatni oldini olish uchun uning yechimlarini o'ylab topish va korrupsiyani ildizini sug'urib tashlash darkor. Eng avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashishni oiladan boshlash kerak. Bu borada biz ayollarning roli katta. Agar o'g'rilik yoki pora hisobiga kelgan luqmaning tag ildizini ayollarimiz surishtirib bilsa, ochiq fikrini ayta olsa, erlar halol rizqni izlashga tushib ishi va oilasida fayz –baraka sokinlik hamda xotirjamlik qaror topishi mumkin. Korrupsiya va uning yechimlari haqida Abu Nasr Farobiy „Fozil odamlar shahri“ asarida fuqarolik jamiyatini qurishda to'g'anoq bo'ladigan muammolardan biri korrupsiyadir, deb qayd etgan. Bozor munosabatlarini iqtisodiyoti tizimi kushandasi, davlatlar o'rtasida ikki va ko'p tomonlama hamkorlik, biznes hamda investitsiya rivojida shavqatsiz to'siq ham ayni shu korrupsiyadir deb e'tirof etgan. Tasavvuf adabiyotining mashhur namoyandasi Hoji Ahmad Yassaviyning quyidagi misralari insonni taqdir har ko'yga solmasin, u hamisha halollik va to'g'rilikni kasb etishga undaydi, aks holda, jazosi og'ir bo'lishini bashorat qiladi.

Dunyo uchunu g'am yema ,haqdin o'zgani dema,

Kishi molini yema, sirot uzra tutaro...

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2000-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida :„Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloni oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'I rivojlanmaydi.“-degan edilar. SHundan ham ko'rinib turibdiki, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun korrupsiyaning oldini olish va uni yo'qotish chora tadbirlarini topmog'imiz kerak. Korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida nafaqat O'zbekistonda balki jahon mamlakatlarida ham xalqaro huquq normalari mavjud bo'lib, ular quyidagilarda o'z ifodasini topgan. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin;

- 2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi;
- 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi;
- 1999-yil 27-yanvardagi Yevropa Kengashining „Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida“gi Konvensiyasi;

- 1999-yil 4-noyabrdagi „Korrupsiya uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to'g'risida’’gi Konvensiyalari va boshqalar.

Korrupsiyaning oldini olish va yechimlari.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun barchadan siyosiy iroda talab etiladi. Ushbu vaziyatdan chiqish usuli shuki, avvalo, davlat byurokratik apparati hajmi imkon qadar kamayishi, fuqarolarning shaxsiy hayotiga va iqtisodiy faoliyatiga davlatning minimal aralashuvi monopoliyaga barham berilishi lozim. Jamiyat a’zolarini birday qiynab kelayotgan baloi ofatga qarshi kurashish uchun biz qo’shni davlatlar tajribasini o’rganib ularni amalga tadbiiq etishimiz kerak .

Germaniyaning Berlin shahrida dunyo davlatlari orasida korrupsiya bilan bog’liq holatlarni o’rganadigan alohida tashkilot bor . Bu **Transparency International** -, „XALQARO SHAFFOFLIK TASHKILOTI’’ tomonidan har yili e’lon qilib boriladigan **Korrupsiyani qabul qilish indeksi** “da „, O’zbekiston 180 ta davlat orasida 2017-yilda 157-o’rinda, 2018-yilda esa 158- o’rinni egallagan bo’lsa, 2019-yilda 25ball bilan 153-o’rinni egallab 5-pog’onaga ko’tarildi.

Bundan tashqari, **Jahon odil sudlov loyihasining Huquq ustuvorligi indeksidagi „Korrupsiyadan holilik “ indikatorida** O’zbekiston 2019-yilda 0,38ball bilan 95-o’rinni egallagan bo’lsa, 2020-yil bo’yicha 128 davlat orasida 0,40 ball bilan 89-o’rinni egallab, 6-pog’onaga ko’tarilganligi mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi tizimli olib borilayotgan islohotlarning samarasidir. Yuqoridagilarni amalga tadbiiq etsak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bir qator oldingi pog’onalarga siljish, o’sish, yuksalish bo’lar desam mubolag’a bo’lmaydi. Balki, qaysidir vaziyatlarda korrupsiyani ildizidan tag-tugidan yo’q qilib bo’lmas, ammo uni gazak otib rivojlanib ketishini oldini olishi mumkin. SHular bilan bir qatorda mamlakatimizda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari , videokuzatuv, elektron hisob-kitob va almashinuv idoralararo ma’lumotlar bazalarini keng joriy etishl darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Voljenkin B. V. Коррупция серия- современные стандарт в уголовном парве и уголовном процессе! –СПб.,1998.
2. Мишин Г.К.О теоретической разработке проблемы коррупции/Под ред В.В.Лунеева//Коррупция:политические,экономические оргазизационние и правовые проблемы .-М.:Юрист , 2001.
3. Роуз- Аккерман С.Коррупция и государство.Причины, следствия реформы/ пер .с англ.О.А Алякринского.-М.:Логос,2003.
4. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 6-bob , 17-modda;
5. Isroilov Boxodir „Korrupsiya va unga qarshi kurashishga oid atamalar hamda iboralar izoxli lug’ati’’ qo’llanma „,Tafakkur’’ nashriyoti.Tosh.2019

6. Nurmammedova G.B. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar profilaktikasi mexanizmlarini takomillashtirish usullari va yo'nalishlari // YURIST axborotnomasi-Vestnik yurista-Lawyer herald.N1[2021],B 189-204
7. [Http://xs.uz/uzkr/post/korrupsiya-va-milliy-taraqqiyot-muammo-va-yechim](http://xs.uz/uzkr/post/korrupsiya-va-milliy-taraqqiyot-muammo-va-yechim)
8. <https://lex.uz/docs/3107036>
9. <https://lex.uz/docs/3107036#3109393>
10. Korrupsiyaga qarshi kurash tarmog'i Istanbul Xarakatlar Rejasi [IXR] doirasida SHarqiy yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarining 2016-2019 yillarda korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi islohotlari Monitoringi.www.oecd.org/corruption/can